

**KANOP O'SIMLIGI VA UNI YETISHTIRISH USULLARI HAMDA
TEXNOLOGIYALARI**

Ravshanova Adolat Ravshan qizi

JDPU, b.f.f.d. (PhD), biologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Bahodirova Mavjuda Bahriddin qizi

JDPU, biologiya yo'nalishi talabasi

Anatatsiya: *Ushbu maqolada kanop o'simligi (Cannabis sativa) ning morfologik tuzilishi, yetilish fazalari, kimyoviy tarkibi hamda xususiyatlari yoritilgan. Kanop o'simligi asosan, qoplama materiallar, qop-qanor, arqon tayyorlashda ishlatiladi. Maqolada shuningdek kanop o'simligi haqida ma'lumot va yetishtirish uchun kerakli bilimlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari kanop o'simligini yetishtirishda manba ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit sozlar: *kanop, lup tolali o'simliklar, yetishtirish, o'g'itlash, ekish, hosilni yig'ish.*

Tolali o'simliklar to'qishga yaroqli bo'lgan tola beradi. Bu tola har xil gazlama, mato tayyorlash uchun ishlatiladi. Tolali o'simliklardan eng ko'p ekiladiganlari g'o'za, zig'ir, kanop hisoblanadi. Kanop lub-tolali ekinlardan hisoblanadi. Kanop tolasi pishiqligi va juda gigroskopligi bilan boshqa tolalardan farq qiladi. U, asosan, qoplama materiallar, qop-qanor, arqon va chizimcha tayyorlashda ishlatiladi.

Kanop materialdan tikilgan qoplarga solingan mahsulotlar, masalan. qand namdan yaxshi saqlanadi va kanopning mayda tolalari bilan ifloslanmaydi. Kanop to'poni qurilish plitalari va ayrim turdagi qog'oz tayyorlashda ishlatiladi. Kanop gulxayridoshlar oilasiga (Malvaceae), Hibiscus cannabinus avlodiga va turiga mansub bir yillik o'simlik. Kanop namga, isiqlikka va yorug'likka talabchan, qisqa kunli o'simlik hisoblanadi.

Kanop o'simligi (Cannabis sativa) - qimmatbaho tolali texnik ekin bo'lib, undan tayyorlanadigan mahsulotlar namlikni o'ziga yaxshi tortishi va tez o'tkazish xususiyatlari bilan boshqa o'simliklardan ustun turadi. Bu o'simlik O'zbekistonda avvaldan yetishtirilgan, ammo so'nggi yillarda e'tibor susaygan edi. Hozirda qayta tiklanmoqda, masalan, Toshkent viloyatining Quyichirchiq tumanida davlat rahbarligi ostida loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kanop almashlab ekishda kuzgi bug'doy, dukkakli – don, bedadan keyin ekiladi. Uni g'o'zadan keyin ekish ham mumkin. Kanop boshlang'ich o'sish davrida sekin o'shanligi uchun begona o'tlardan toza tuproqlarni xohlaydi. Kanop ekish uchun yer kuzda 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. Erta bahorda tuproqda namni saqlab qolish va begona o'tlarni yo'qotish maqsadida kuzgi shudgor ko'ndalangiga borona qilinadi. Shudgor zichlashib ketgan begona o'tlar ko'p bo'lgan maydonlarda

ekishdan oldin kultivatsiya qilinadi yoki diskali kultivatorlar yordamida ishlanadi, so'ngra borona qilinadi va mola bosiladi.

Kanop o'simligi kechki ekin va urug'lari mayda bo'lganligi uchun ekishgacha shudgor yaxshi ishlanishi kerak. Ayniqsa, tuproq yuzasi tekis va mayda bo'lishi kerak. Shundagina urug' tekis ko'miladi va maysalar qiyg'os unib chiqadi. Kanop oziq moddalarga talabchan o'simlik. Ma'dan o'g'itlarni solish me'yori tuproq unumdorligi va rejalashtirilgan hosildorlikka qarab har xil bo'ladi.

Umuman kanop ekiniga o'rtacha 90-150 kg azot. 90-150 kg fosfor va 50-70 kg kaliy o'g'itlari berish kerak. Mineral o'g'itlarning asosiy qismi, ya'ni 50-60% fosforli va 50% kaliyli o'g'itlar organik o'g'itlar bilan birga kuzgi shudgorda solinadi. Kanopga ekishdan oldin 20-30 kg azot, shu miqdorda fosfor solinadi, qolgan o'g'it miqdori vegetatsiya davrida poyaning tez o'sish davrida ikkinchi marta oziqlantirishda solinadi.

Birinci oziqlantirish maysalar paydo bo'lgandan so'ng 25-30 kun o'tgach, ikkinchi oziqlantirish esa birinchisidan 20-25 kun o'tgach o'tkaziladi. O'g'it egatlar o'rtasida 5-8 sm chuqurlikka ko'miladi. Urug'ni ekish uchun saralangan begona o'tlar urug'idan tozalangan I,II,III klas urug'lar ishlatilishi kerak. Urug'ning unib chiqish darajasini va quvvatini oshirish maqsadida ekishdan oldin 5-6 kun quyoshda qizdirish zarur.

Kanop isiqlikka talabchan o'simlik, shuning uchun tuproq harorati 14-16° ga etganda ekiladi. Kanop ekish uchun qulay muddat aprel oyi hisoblanib bunda tabiiy namga maysalar unib chiqadi. Lekin urug'lik maydonlarda kanop, tola uchun ekilganga nisbatan ertaroq ekilishi kerak. Chunki urug' to'la pishib ulgurishi lozim. Shunga ko'ra urug'lik kanop ekish uchun eng qulay muddat aprel oyining birinchi o'n kunligi, tola olish uchun esa shu oyning ikkinchi o'n kunligi hisoblanadi. Kanop keng qatorlab qator orasi 50-60 sm, lentasimon qo'sh qatorlab ekiladi. Tola olish uchun qator orasi 50sm, lenta orasi 15sm, ya'ni 50x15 sm shaklida ekiladi. Ekish me'yori poya yoki urug' olish uchun ekilishiga qarab belgilanadi. Kanop poya olish uchun gektariga 50-55 kg urug' sarflanadi.

Bunda bir gektar yerda 1,2-1,4 mln.dona o'simlik bo'lishi kerak. Tuproqning unumdorligi pastroq, ma'dan o'g'itlar kamroq beriladigan bo'lsa urug'ni ekish me'yori ham 35-40 kg ga kamaytiriladi va bu holda bir gektarda 0,8-1,2 mln.dona o'simlik bo'ladi. Urug' olish uchun qator orasi 60 sm qilib, bir qatorlab, siyrak qilib ekiladi.

Bunda bir gektar yerga 10-12 kg urug' sarflanadi. Maysalar yaganalagandan so'ng har gektarda 160-180 ming dona o'simlik qoldiriladi. Urug'lar 4-5 sm chuqurlikka ko'miladi.

Ekinni parvarish qilish uchun qatqaloqqa qarshi kurash, qator oralarini ishlash, oziqlantirish va sug'orishdan iborat. Maysa paydo bo'lguncha tuproq betida hosil bolgan qatqaloqni ekinlarni ko'ndalangiga borona qilish bilan yo'qotiladi. Maysa hosil bo'lgandan so'ng tuproq betida hosil bo'lgan qatqaloqni o'simlik qator oralariga ishlov berish yo'li bilan yo'qotiladi Kanop suvga talabchan o'simlik.

Yer ostki suvlari 1,0-1,5m pastda joylashgan o'tloqi-botqoq tuproqlarda kanop 5-7 marta sug'oriladi. Yer osti suvlari chuqur joylashgan tuproqlarda 8-10 marta sug'oriladi. Sug'orish normasi 800-1000 m³/ga.

Kanop poyasi tola uchun texnik jihatidan yetilganda yig'ishtiriladi. Bunda poyaning uch qismida lansetsimon barg paydo bo'ladi. Kanop poyasi JK-2,1 A o'rish mashinasida 7-8 sm balandlikda o'riladi. So'ngra po'stliqni shilish uchun LS rusumli mashina ishlatiladi. Po'stloq (lub) poyasidan shilib olingandan so'ng 2-3 kun davomida yerga bog' qilib yoyilib, quritiladi va uchlari tekislanib, har biri 8-10 kg dan bog' qilib bog'lanib lub zavodiga topshiriladi.

Kanop tolasi pishiqligi, gigroskoplighi va ko'p qirrali qo'llanilishi bilan boshqa tolali ekinlardan ajralib turadi. Uni yetishtirish jarayoni tuproqni sifatli tayyorlash, o'g'itlash me'yorlariga rioya qilish, ekish muddatini to'g'ri tanlash va parvarish ishlarini o'z vaqtida bajarishni talab etadi. Kanopning oziq moddalarga va namlikka talabchanligi uning optimal agrotexnik choralar asosida yetishtirilishini talab qiladi.

Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kanop yetishtirish texnologiyasiga to'liq amal qilinganda yuqori sifatli tola va urug' hosili olish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda kanop yetishtirishga bo'lgan e'tiborning ortib borayotgani ushbu ekinning iqtisodiy va sanoat uchun katta imkoniyatlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Kanopni qayta tiklash va ilmiy asoslangan agrotexnik talablarga amal qilish orqali respublikaning to'qimachilik, qurilish va boshqa sanoat sohalari uchun muhim xomashyo bazasini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.X.A.Idrisov, S.M.Nazarova. O'simlikshunoslik. Darslik. Buxoro, 2023.
- 2.Toshkent Davlat Agrar Univrsiteti X.N.Atabayeva, J.B.Xudoyqulov o'simlikshunoslik.